



ZAMONAVIY TA'LIMDA AYOLLARNING O'RNI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Farhodova Obida Oybek qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389496>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-may 2026 yil
Ma'qullandi: 24-may 2026 yil
Nashr qilindi: 26-may 2026 yil

KEYWORDS

Ayollar, ta'lim tizimi, gender tengligi, zamonaviy ta'lim, ayol pedagoglar, ilm-fan, kasbiy rivojlanish, xotin-qizlar faolligi, innovatsion ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida ayollarning o'rni va jamiyat rivojida ularning ahamiyati, ayollarning ilm-fan uchun qo'shayotgan hissasi haqida so'z boradi. Shuningdek maqolada yurtimizda so'nggi yillarda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'lim va ilmiy faoliyatdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash masalalari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi.

Ta'lim tizimi barcha davrlarda ham davlatlarning taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lgan. Bugungi globallashuv zamonida ham ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim pog'onasi hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirish hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ayollarning o'rni katta. Chunki ayollar nafaqat oilada farzand tarbiyachisi, balki jamiyatda pedagog, olim va yetuk mutaxassis sifatida ham faol ishtirok etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning sifatli ta'lim olishi va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu o'rinda tarixga bir nazar tashlasak. Qadimgi va o'rta asrlarning ayrim davrlarida ayollarning davlat siyosati va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati juda past bo'lgan. Ko'plab davlatlarda ayollar siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridan chetda qolgan, ularning ta'lim olishi hamda davlat boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniyatlari cheklangan. Jamiyatda asosan erkaklar yetakchi kuch sifatida qaralganligi sababli, ayollarning bilim va salohiyatidan to'laqonli foydalanilmagan. Biroq vaqt o'tishi bilan jamiyat taraqqiyoti va demokratik qarashlarning rivojlanishi natijasida ayollarning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni tobora ortib bordi. Ayniqsa ta'lim sohasida ularning o'rni juda muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda oliy ta'lim tizimida ayollar faol ishtirok etib kelmoqda. Ular yosh avlodga nafaqat bilim beradi, balki ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Mamlakatimizda ham mustaqillikdan keyin gender tengligi siyosati alohida e'tirof etilib xotin-qizlarning barcha sohalardagi faol ishtirokini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Statistik misol keltiradigan bo'lsak, bugungi kunda oliy ta'limda tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni qariyb 54,5 foizni tashkil etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning 96 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu ko'rsatkich 71 foizni tashkil etadi. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning esa qariyb 46 foizi ayollar hissasiga to'g'ri keladi.

Albatta bu ko'rsatkichlar zamirida yurtimizda olib borilayotgan bu boradagi ulkan islohotlar va ayollar uchun ochilgan keng imkoniyatlar yotadi desak juda to'g'ri bo'ladi. Mana shunday islohotlardan biri yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan bu borada ilgari surilgan tashabbus bo'ldi. Ya'ni magistratura bosqichida tahsil olayotgan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tizimi joriy etilgani ayollarning ta'limga bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Bundan tashqari, turli stipendiyalar va xalqaro dasturlar orqali ayollarning xorijda ta'lim olishi ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Bunday tashabbuslarga misollar yana bir talaygina albatta. Xususan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ham ayollar uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Onlayn ta'lim platformalari orqali ayollar masofadan turib bilim olish, malaka oshirish va yangi kasblarni egallash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Kelajakda ayollarning ta'lim tizimidagi o'rni yanada ortib borishi kutilmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda ayollarning bilimli va malakali bo'lishi davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'zimizning isboti sifatida Hindistonlik mashhur siyosatchi va davlat arbobi Indira Gandining bir fikrini keltirsak: "Bir qiz bolani o'qitsangiz, butun jamiyatni o'qitgan bo'lasiz". O'qimishli ayol nafaqat jamiyat rivoji uchun hissa qo'shadi balki uning taraqqiyoti uchun, kelajagi uchun kerakli bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalaydi va voyaga yetkazadi. Shu sababdan ham kelajakda ayollarning ta'lim sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirish, ular uchun turli imtiyozlar, davlat grandlari tashkil etish ularning ta'lim olish, kasbiy rivojlanish hamda ilm-fan sohasidagi faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim tizimining rivojlanishi ayollar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Endilikda ayollar turli xalqaro kurslar, onlayn dasturlar va ilmiy loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning kasbiy malakasini oshirish bilan birga xalqaro tajriba almashishiga ham xizmat qiladi.

Kelgusida ayollarni STEM yo'nalishlariga – ya'ni ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohasiga keng jalb qilish muhim istiqbollardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu yo'nalishlarda ayollarning faolligi innovatsion rivojlanish va ilmiy taraqqiyotga katta hissa qo'shadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan statistikalar va misollar ayollarimizning nafaqat ta'lim tizimi balki boshqa sohalarda ham faol xizmat ko'rsatayotganiga dalil bo'la oladi. Ular uchun berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlarni ko'paytirish ayollarning jamiyatdagi faolligini, mehnatini yanada oshirishga xizmat qiladi desak xato bo'lmaydi. Shu bilan birga, ayollarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay sharoit yaratish va gender tengligini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bilimli, faol va zamonaviy fikrleydigan ayollar jamiyat taraqqiyoti hamda kelajak avlod kamolotining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi — Toshkent: "O'zbekiston", 2021. — 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Pedagogika – Toshkent: "O'qituvchi", 1997.
4. Jo'rayev R. X. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. — Toshkent: Fan, 2015. — 176 b.
5. N. Muslimov. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. — 76 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. – 2025.